

## KINOYANING YONDOSH HODISALARGA MUNOSABATI

Eshboyeva Shoirra

Aliisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O'zbek tili va adabiyoti universiteti 3-kurs talabasi

### Annotatsiya

Har qanday hodisa yondoshlariga munosabati asosida baholanadi. Kinoya ham stilistik hodisa sifatida bir tomondan kinoya (ironiya), metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, o'xshatish, antifraza (kinoyaning bir turi), sarkazm, perifraz, mubolag'a, litota, allegoriya, simvol, jonlantirish, apostrofa kabilarga munosabat asosida o'z mohiyatini namoyon qiladi.

**Kalit so'zlar.** Kinoya (ironiya), metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, o'xshatish, antifraza (kinoyaning bir turi), sarkazm, perifraz, mubolag'a, litota, allegoriya, simvol, jonlantirish, apostrofa

Har qanday hodisaning mohiyati uning yondosh hodisalarga munosabatini aniqlash, aniqrog'i, uni sistema ichida kuzatish asosida ochiladi. Shu boisdan kinoyaning ham mohiyatini aniqlash va tavsiflashga bo'lgan ehtiyoj uni o'z "sistemadosh"lari, yondosh hodisalar bilan sistem munosbatlarini aniqlash asosida amalga oshiriladi.

Avvalo, kinoya konseptining leksikografik talqiniga, uning lug'at va qomuslardagi izohlariga murojaat qilamiz.

Ikki tomli "O'zbek tilining izohli Lug'ati"da kinoyaga shunday izoh beriladi: "**KINOYA** [a] Masxaralash, kulish uchun aytilgan pardali gap; qochirim, istehzo, piching, kesatiq. – Xo'sh, sizcha nima qilish kerak, o'qimishli akam! – dedi kinoya bilan Yo'lchi. Oybek, Qutlug' qon" [3, 386].

Lug'atda kinoya o'zagi asosida yaratilgan kinoyali, kinoyaomiz so'zlari izohi ham berilgan, ularning ma'nosi kinoya leksemasining sememasi asosida tavsiflangan.

Ko'rinadiki, lug'atda kinoya leksemasining mohiyati gapning qo'llanish maqsadi asosida tavsiflangan, ma'noni yoritish uchun kinoyaning sinonimlari (qochirim, istehzo, piching, kesatiq) ga ham murojaat qilingan.

O'zbek tilining 5 tomli izohli lug'atida leksema izohi etimolik ma'lumotlar bilan boyitilgan, misollar bilan to'yintirilgan. Avvalgi lug'atda uning birgina ma'nosi qayd etilgan bo'lsa, bunda u polisemantik leksema sifatida tavsiflangan: "**KINOYA** [a. كناية – belgi; shama, ishora; piching; kesatiq] 1 Masxaralash, kulish uchun asl ma'nosidan boshqa, majoziy ma'noda aytilgan so'z, gap; qochirim, istehzo, piching, kesatiq ifodasi. – Xo'sh, sizcha nima qilish kerak, o'qimishli akam! – dedi kinoya bilan Yo'lchi. Oybek, Tanlangan asarlar. Saodatxonning...yuzidagi jiddiylik o'rnini g'alati, kinoyaga o'xshash tabassum egalladi. S.Zunnunova, Yangi direktor. –Norboyevmisiz? Mehnatdan qochib kelibsiz-da, singlim, –

Uning ko‘zoynak orqasidagi ko‘zlari kinoya bilan kisildi. O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. Shodi Mudarrisovich iljayib turar, so‘zlarida hazil aralash kinoya ohangi bor edi. D.Nuriy, Osmon ustuni.

2 ad. Uslubiy vosita: badiiy asardagi inkor etish usullaridan biri bo‘lib, biror shaxs yoki narsa ustidan kesatq, qochiriq vositasida yashirin kulishdan iborat” [4, 370].

Ikkinchi izohda kinoyaning mohiyati ma’lum darajada oydinroq yoritilgan, uning turli sath birliklari bilan ifodalanishi haqidagi hukm (so‘z, gap) sathlar bo‘yicha sochilgan keng qamrovli hodisa ekanligiga ishora qiladi.

Kinoya lingvistik kategoriya sifatida “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da ham izohlangan: “Til birligini uning haqiqiy ma’nosiga nisbatan boshqa yoki qarama-qarshi ma’noda kesatq, qochiriq, piching bilan ishlatishdan iborat ko‘chim: – Xo‘sh, sizcha nima qilish kerak, o‘qimishli akam! – dedi kinoya bilan Yo‘lchi (Oybek)”[5, 49].

Kinoyaning sof lingvistik leksikografik definisiyalarida bir xil an’ana hukmronlik qilib keladi. U ham bo‘lsa, kinoyada qarama-qarshi qubtlarning mavjudligi: “Ironiya angl irony. Trop, состоящий в употреблении слова в смысле обратном буквальному с целью тонкой или скрытой насмешки; насмешка, нарочито обличенная в форму положительной характеристики или восхваления. Russk. Посмотрите, каков Самсон! (о слабом, хилом человеке); Откуда, умная, бредешь ты, голова? (в обращении к ослу)”[1, 185].

Adabiyotshunoslikda kinoya ko‘pincha badiiy kategoriya sifatida keng talqin qilinadi. “Ironiya (gr. eironeia – bilib bilmaganga olish so‘zidan) – kinoya, qochiriq, kesatish, piching. Badiiy asardagi inkor etish usullaridan biri bo‘lib, biror shaxs yoki narsa ustidan kesatish, qochiriq vositasida yashirin kulinadi. Shuning uchun ham kinoyaning muhim belgisi so‘z yoki gapning hamma vaqt ikki ma’noli bo‘lishida, haqiqiy ma’no aytilgan so‘z yoki gapning teskari ma’nosi orqali anglashilishida namoyon bo‘ladi. Kinoya o‘zining ta’sir darajasiga qarab fosh etuvchi yoki shunchaki qochiriqdan iborat bo‘ladi. Kinoya usuli, asosan, hajviy, kulgili tasvirda keng qo‘llanadi. Masalan, Abdulla Qahhorning “Mayiz yemagan xotin” hikoyasidagi voqea kinoya asosiga qurilgan bo‘lib, domlanning o‘z xotinining yaramas ishlaridan xabarsiz holda mahalladagi halol va pokiza qizlar ustidan kulib yurishi asar oxiridagi “U kishining xotinlari mayiz yemaganlar” kinoyasi orqali fosh etilgan. Kinoya ijodkorning estetik idealini tasvirlagan voqealar, ifodalarning aks holati orqali namoyon bo‘ladi” [8, 141].

H.Homidiy va boshqalar muallifligidagi “Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati”da kinoya kategoriyasi allegoriya atamasi mohiyati bilan birday tushuniladi. “**Kinoya** – q. **Allegoriya**.”[7, 75]. **Allegoriya** lug‘at maqolasida esa shunday izohni o‘qiymiz: “O‘zbek tilida ham shunga monand fikrlar mavjud: “Allegoriya. Grekcha allegoria so‘zidan olingan bo‘lib, qochiriq, kesatish ma’nolarini bildiradi.

Tropning bir turi sifatida allegoriya ham so‘zlarning ko‘chma ma’nosiga asoslanadi. Yozuvchi abstrakt (mavhum) tushunchalar to‘g‘risida aniq tasavvur hosil qilish niyatida uni biror xususiyati bilan yaqinlashadigan konkret odamlar orqali badiiy qilib tasvirlab beradi.



Elga bersang oshingni, erlar silar boshingni,

Itga bersang oshingni, itlar g'ajir boshingni. (Maqol)

Ko'rpangga qarab oyoq uzat. (Maqol)"

Siddiqjon bilan so'zlashib turganini emas, boqqa tushganini bilsa ham, terisiga somon tiqadi. Bu xususda otasining qamchisidan qon tomar edi. Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga. (Maqol)

Misollardagi it, ko'rpa, sichqon, qamchi, somon so'zlari o'zining to'g'ri predmetlik ma'nosini anglatish uchun ishlatilmagan, albatta"[2, 245].

Manbada allegoriyaning ko'proq masal, ertak janri uchun xos ekanligi, chog'ishtiriladigan narsalar o'rtasida ma'lum aloqa bo'lishi bilan metonimiyaga o'xshab ketishi ta'kidlanadi.

Allegoriyada har doim ham piching yoki kesatish, yoxud teskari ma'noda qo'llash holatlari kuzatilmaydi. Demak, allegoriyani ironiya (kinoya) ning bir turi sifatida qarash maqsadga muvofiq emas. Zero, unda kinoyaning umumiy subutiy belgisini kuzatmaymiz. Allegoriyaning asosiy belgisi uning jonsiz insondan boshqa jonli narsalar vositasida insoniy sifatlarni tasvirlashi, obrazlilik muhim o'rin tutadi va kulish, istehzo har doim ham mavjud bo'lavermaydi.

Antifrazani kinoyaning bir ko'rinishi sifatida tushunish ham mavjud. "O'zbek tili stlistikasi"da allegoriyaga berilgan ta'rifda buni kuzatamiz: "Antifraza ironiyaning bir ko'rinishi bo'lib, biror shaxs yoki predmetga xos bo'lgan u yoki bu ijobiy xususiyat kulgili intonasiya bilan inkor qilinadi: Juda aqlli, nima ham der edik. (M.G). Yaxshi gap. Qanday yaxshi! Bir kishini aldab, so'ng o'zini hech narsani bilmagan kishi qilib ko'rsatish. (Og'zaki nutqdan)"[2, 246].

Kinoyadagi uch xarakterli jihat:

a) inkor;

b) jiddiylilik qiyofasidagi nojiddiylilik;

v) qarama-qarshi mohiyatlarning birlashuvi

yaxlitligi asosida antifraza munosabatda bo'linadigan bo'lsa, uning kinoya bilan ma'nodosh ekanligi haqidagi xulosaga kelish mumkin.

O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar lug'atlarida kinoya umumiste'mol leksemasining ma'nodoshlari sifatida kechatiq, istehzo, piching leksemalari ajratilgan va ularning ma'nodoshlik qatori quyidagicha tashkil qilingan:

**KESATIQ – KINOYA – ISTEHZO – PICHING**

"Kamsitish, masxaralashni yarim yashirin ravishda ifodalovchi gap-so'z, xatti-harakat. Kesatish so'zida masxaralash ottenkasi kinoya so'ziga nisbatan kuchliroq. Kinoya so'zi kesatiq so'ziga nisbatan kitobiy bo'lib, termin sifatida ham qo'llanadi. Istehzo kitobiy" [6, 123]. Kinoya so'zining termin sifatida qabul qilinganligi boshqalarini unga kiruvchi uyadoshlar sifatida e'tirof etish imkonini beradi. Aytilganlar asosida kinoya umuiste'mol so'z

sifatida kesatiq, piching, istehzo soʻzlari uchun uya leksema boʻlib, u oʻzida ularning ham semantik imkoniyatlarini mujassamlashtirganligi haqida xulosa qilish mumkin.

Baʼzi adabiyotlarda kinoya (ironiya) ni sarkazm bilan tenglashtirish hollari uchraydi. Biroq ular garchi bir umumiylik (tanqid, zarba berish) umumiyliigi ostida birlashsa-da, farqli jihatlariga ega. Kinoyadan farqli ravishda “sarkazm koʻchma maʼnoga ega boʻlmaydi, ammo muallifning tasvirlayotgan voqea-hodisaga munosabatini koʻrsatadi. Bu ham achchiq kulgu, taʼnaga asoslangan boʻladi. Shu xususiyati bilan ham sarkazm ironiyaga ancha yaqinlashgan boʻladi. Sarkazm koʻproq satirik asarlarda, satirik tasvirda qoʻllanadi. Bunda koʻproq shaxs-predmet yoki voqea-hodisaning salbiy tomonlari fosh qilinadi”[2, 244]. Demak, sarkazm kinoyaning umumiy (yengil) kulgi, masxaralash oʻttenkasidan kuchli boʻyogʻi bilan farqlanadi. Men sizni, meni Balxga yuborib, bunchalik **marhamatlar** qilasiz deb oʻylamagan edi jumlasida Navoiyning Boyqaroga aytayotgan marhamat sarkazmi oʻta “achchiq”ligi bilan xarakterlanadi va kinoyaning sarhadlaridan maʼlum darajada chetga chiqadi. Bunda, albatta, sarkazm koʻchma maʼnoga ega boʻlmaydi degan tezis amal qilmayotgandek tuyuladi. Biroq marhamat soʻzining jazo soʻzi maʼnosini berayotganligi uning koʻchma maʼno ifodalayotganligini koʻrsatadi. Lekin sarkazm har doim ham oʻzida qarama-qarshi mohiyatni aks etiravermaydi. Masalan, Rahnamo iblis boʻlgach, yanglishish tabiiydir jumlasida Navoiy tilidan shohga aytilayotgan rahnamoning iblisga oʻxshatilishi sarkazmga misoldir. Bunda piching, kesatish, lisoniy shakl mohiyatiga teskari maʼnoni ifodalash holati mavjud emas kinoyaviy unsur kuzatilmaydi. Demak, sarkazm maʼlum bir holatlarda kinoya bilan kesishsa-da, lekin u bilan mutlaqo teng keladigan hodisa emas.

Termin sifatida kinoya atamasi ironiya va antifraza atamalari bilan maʼnodoshlik munosabatida turadi. Biroq kinoya birligining oʻzbek tiliga mutlaq oʻzlashganligi, ironiyaning olinmaligi saqlanganligi, antifraza esa kam isteʼmolligi bilan xarakterlanishi ular sirasida kinoya ning mutlaq ustuvor termin sifatida yashovchanligini taʼminlaydi.

Uslubiy vosita sifatida baʼzan trop, uslubiy figura, sxemalar farqlangani holda, koʻp hollarda kinoya trop majmuida koʻriladi. Masalan, yuqorida N.A.Sırma trop, figura va sxemani farqlab, kinoyani sxema sirasiga qoʻygan edi. “Oʻzbek tili stilitikasi”da kinoya (ironiya), metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, oʻxshatish, antifraza (kinoyaning bir turi), sarkazm, perifraz, mubolagʻa, litota, allegoriya, simvol, jonlantirish, apostrofa kabilar bilan bir qatorga qoʻyiladi [2, 246]. Bunda koʻchish usuli, koʻchish jarayoni va koʻchim mahsuli farqlanmagandek tuyuladi. Masalan, bunga metafora bilan kinoyaning bir qatorga qoʻyilishi asosda amin boʻlish mumkin.

Koʻchish usullari va koʻchim mahsulini bir qatorga qoʻyish keyingi ayrim darslik va manbalarda ham koʻzga tashlanmoqda. Masalan, keyingi yillarda nashr etilayotgan darslik va qoʻllanmalarda maʼno koʻchish usullari sirasi kengayib ketayotganligiga amin boʻlish mumkin. Masalan, “Oʻzbek tilidan universal qoʻllanma” kitobida mualliflar kinoyani koʻchish



usuli sifatida qaraydilar: “Ma’no ko’chishining nima asosda yuzaga kiyelishiga ko’ra 5 turi bor:

- 1) metafora;
- 2) metonimiya;
- 3) sinekdoxa;
- 4) vazifadoshlik;
- 5) kinoya.”

Demak, kinoyaning ko’chish usullariga, ko’chish jarayoni va mahsuliga munosabatini ham oydinlashtirish zarur.

Ko’chimga ehtiyoj, uni amalga oshirish mexanizmi va natija murakkab jarayon bo’lib, bunda har bir bosqichga xos hodisalarning murakkab tabiatliligi tadqiq jarayonida aniq to’xtamga kelish imkoniyatni ma’lum darajada cheklaydi. Shu boisdan, masalan, ma’no ko’chish usullari va uning natijasi bo’lgan holatlarni chalkashtirish hollari tegishli adabiyotlarda uchrab turadi.

Ko’chim ikki ehtiyoj asosida vujudga keladi:

- a) tegishli ma’noni ifodalovchi birlikning sub’yektiv baho va kommunikativ niyat darajasida emasligi;
- b) tegishli ma’noni ifodalovchi lisoniy birlikning mavjud emasligi.

Buni tilshunoslar quyidagicha izohlaydilar: 1. Bir so’z boshqa so’zga nisbatan so’zlovchining ifoda maqsadiga ko’proq mos va muvofiq bo’ladi va shuning uchun birinchisi o’rnida ikkinchisi qo’llaniladi.

2. Biror denotatning ifodalovchisi bo’lmaydi va ma’lum bir so’z boshqa denotatni ham ifodalash uchun qo’llaniladi.

Demak, birinchi holda ko’chirilayotgan so’z denotatning ikkinchi atamasi bo’lsa, ikkinchi holda birinchi atamasidir. Masalan, quyi so’zi anglatadigan ma’noni etak so’zi qulayroq va to’laroq ifodalaganligi bois tog’ning quyi tomoniga nisbatan etak so’zi ishlatilgan.

O’zbek tilida dengizdagi o’ziga xos jo’g’rofiy o’rinning nomi bo’lmaganligi bois qo’ltiq so’zi unga nisbatan ham qo’llaniladi.

Har qanday ko’chim nutqiy hodisa bo’lib, u tafakkur bilan bog’liq murakkab kognisiya asosida yuz beradi. Ko’chim hosil qilish maqsadi, uni “tashkil etish” jarayoni va natijani qo’lga kiritish asosidagi yakun bir yaxlit kognitiv ssenariyni tashkil qiladi. Masalan, “o’lmoq” tushunchasining so’zlovchi kayfiyatiga salbiy ta’sirini kamaytirish istagidan iborat maqsad, unga muvofiq keladigan ifodani qidirish va ifodani nutqda qo’llash bilan bog’liq natija ana shu kognitiv ssenariyga misol bo’la oladi va u quyidagi ko’rinishda aks etadi:

kommunikativ niyat – kognisiya – kommunikativ natija

evfemalashtirish niyati – evfemizasiya – evfemiya

“o’lmoq”ni evfemalashtirish niyati– metaforizasiya – “joni uzilmoq”

Bu kognitiv ssenariyni ko’chim hodisasiga nisbatan quyidagicha tatbiq qilish mumkin.

Umuman, tilda metaforizasiya, metonimizasiya, funksionimizasiya hodisalari kognisiya jarayonini o'zida aks ettiradi. Kognisiya ko'chish usulining ishga tushish jarayonini ifodalaydi. Ana shu jarayon hosil bo'lgan ko'chma ma'noning xususiyatiga ko'ra emfemizasiya, disfemizasiya, ironizasiya kabi terminlar bilan ham beriladi.

Shu ma'noda yuqorida kognitiv jarayonda kinoya natija bo'lib, u evfema, disfema va boshqa ko'chma ma'nolar bilan jarayon mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Tilda natija sifatida metafora, metonimiya, sinekdoxa mavjud emas, balki ularning har biri jarayon mexanizmining mavhum operasion tizim sifatida ongda yashaydi.

Kinoyalashtirish (ironizasiya) murakkab kognitiv jarayon bo'lib, unda lisoniy, madaniy va sosipragmatik omillarning qorishuvidan iborat yaxlit mexanizm ishlaydi.

Shunday qilib, kinoya o'zida so'zlovchining salbiy hissiy munosabatini aks ettirgan, shakli va mazmuniy nomuvofiqlikdagi, kulgi/istehzoga asoslangan, turli sathga birliklariga xos nutqiy ma'nodir. Kinoya mohiyatan evfemik, disfemik ma'nolarga yaqin turadi va ular bilan bir turga mansub bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Axmonova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. – B. 185
- 2.Shomaqsudov A. va boshq. O'zbek tili stilistikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1983. –B.238–246.
- 3.O'zbek tilining izohli Lug'ati. 2 tom. 2- tom. –B.386.
- 4.O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 2–jild. – B.370.
- 5.Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati . – B. 49
- 6.Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati: Universitetlarning va pedagogika institutlarining studentlari uchun qo'llanma. –Toshkent: O'qituvchi, 1974. –B.123.
- 7.Homidiy H. va b. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – B.75.
- 8.Hotamov N., Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlari. – B. 141.